BADIIY MATNLARDA MILLIY MADANIYATNING LINGVOMADANIY IFODASI

Jo‘rayev Nabi Narziyevich,
Termiz davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Email: jurayevnabi@tersu.uz

Jamiyatda har bir xalqning asrlar osha saqlanib, sayqallanib kelayotgan o‘z milliy urf-odatlari va an’analari, milliy qadriyatlari bor. Bu milliy urf-odatlar milliy mohiyati va mazmuni, yangilanish va tarqalish sur’atlari, o‘zining kelajak avlodlarga o‘tish yo‘llari bilan xarakterlanadi. O‘zbek xalqining milliy urf-odatlari shu xalq va jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi. Albatta, milliy xalqning bu ko‘rinishdagi qadriyatlari va madaniyati badiiy matnlarda ham o‘zining milliy, badiiy ifodasini topa olgan. Olib borilayotgan tadqiqotlarimiz doirasida badiiy matnlarda o‘zbek milliy urf-odatlarining lingvomadaniy birlik sifatida qo‘llanilishi tahlilini amalga oshirish mavzuning mazmun-mohiyatini atroflicha ochib berishga xizmat qiladi. O‘zbek milliy tilshunosligida “tilni o‘zbek xalqining urf-odatlari, tarixiy a’analari va ma’naviy olami bilan bog‘liq ravishda o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchayib bormoqda”[1]. Bu borada N.Mirzayev, A.Jo‘raboyev, Z.Husainova, S.Davlatov, N.Qurbonboyeva, L.Xudoyqulova, Y.Bobojonov, F.Hayitova, Sh.Nurillayeva, N.Amonturdiyev, M.Fayzullayeva, N.Kurbanazarova- [2]larning ilmiy-tadqiqot ishlarini e’tirof etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tilshunos olimlarning ilmiy izlanishlari, ilmiy-tadqiqot ishalari “tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri”[3] ekanligi hissi bilan sug‘orilgan. O‘tgan asrning oxirlaridan boshlab, butun dunyo miqyosida, xususan, o‘zbek tilshunosligida etnolog va sotsial antropologlar tomonidan o‘zbek xalqining milliy marosimlarini, qadriyatlari va urf-odatlarini xalq madaniyatining fenomeni tarzida o‘rganish an’anaga aylana boshladi. “Masalan, bizning davrimizda ham, ayniqsa, Farg‘ona viloyatida oilada tug‘ilgan chaqaloqqa ism ism qo‘yish masalasiga juda katta e’tibor bilan qaralgan. Qo‘yilgan ismlar bo‘lajak insonni nafaqat farqlash, balki uni turli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan balo-qazolardan asraydigan vosita deb qaralgan. Shuning uchun ham bolaga ism berishda mas’uliyat sezishgan. Oilada farzand birin-ketin nobud bo‘laversa, farzandga Tursun, To‘xtamish, O‘lmas, Tursun, Turg‘un, Turg‘unoy, Ergash, Yo‘ldosh, Mahkam kabi ismlar

[1] Қурбонназарова Н. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Фил.фан.бўйича фалсафа док.(PhD) дисс. – Термиз, 2021.

[2] Мирзаев Н. Ўзбек тилининг этнографик лексикаси. Филол.фан.номзоди дисс. – Тошкент, 1971.; Жўрабоев А. Ўзбек тилида тўй маросим номлари. Филол.фан.номзоди дисс. – Тошкент, 1971.; Ҳусаинова З. Тўй маросимлари номларининг ономосиологик тадқиқи (Бухоро гуруҳ шевалариасосида) Филол.фан.ном. дисс. – Тошкент, 1984.; Давлатов С. Қашқадарё воҳаси ўзбек тўй маросимлари фольклори. Филол.фан.номзоди дисс. – Тошкент, 1996.; Қурбонбоева Н. Хоразм тўй қўшиқлари.Филол.фан.номзоди дисс. – Тошкент, 1998. ; Худойқулова Л. Сурхондарё тўй-маросим қўшиқлари. Филол.фан.номзоди дисс. – Тошкент, 2011.; Бобожонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси. Филол.фан.номзоди дисс. – Тошкент, 1997. ; Ҳайитова Ф. Никоҳ тўйи қўшиқларининг лиргвистик талқини. Филол.фан.номзоди дисс. – Тошкент, 1998.; Нуриллаева Ш.М. Туркистон қарлуқ тил шеваларида тўй маросими номлари. Филол.фан.номзоди дисс. – Тошкент, 2001.; Амонтурдиев Н. Сурхондарё этногафизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил.фан.бўйича фалсафа док.(PhD) дисс. – Термиз, 2021.; Файзуллаева М. Ўзбек маросимий циклидаги таомлар ва тановвул (Сурхон воҳаси никоҳ маросимлари мисолида) Республика XII илмий-амалий конференция материаллари, 2-қисм, Тошкент – 2020.; Қурбонназарова Н. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Фил.фан.бўйича фалсафа док.(PhD) дисс. – Термиз, 2021.

[3] Кўрсатилган иш, 132 бет, 3-бет.

qo‘yilgan. Qadimiy diniy e’tiqodga asoslanib, ko‘kka (osmonga) OY, Kun, (Quyosh) va boshqa osmon jismlari qudratiga sig‘inish asosida Oyxon, Oyqiz, Yulduz, Hulkaroy, Cho‘lponoy, Quyoshbek, Tahgriberdi kabi ismlar paydo bo‘lgan. Ba’zida muqaddas deb ulug‘langan va sig‘inilgan hayvonlar, jonivorlar, qushlarning nomlaridan ham ismlar yasalgan. Bunday ismlar guruhiga Bo‘ri, Bo‘rivoy, Eshbo‘ri, Arslon, Lochin, Burgut, Qo‘chqor, Sherzod kabi ismlar kiradi”[4]. Shu o‘rinda o‘zbek xalqimizning urf-odatlari ichida oilada tug‘ilgan chaqaloqda tug‘ma ayrim ortiqcha belgilar bo‘lsa, Xolboy, Xolbibi, Anor, Anorbibi, anorxon, Toji, Tojixon, Tojigul, Ortiqvoanganliklarda bola tug‘ilganiga besh kun bo‘lganda maxsus “besh kecha”y, Oltiboy, Norboy, Nortoji, Ochil kabi ismlar qo‘yish odat bo‘lgan. “Namanganliklarda bola tug‘ilganiga besh kun bo‘lganda maxsus “besh kecha” marosimi o‘tkazilgan. Ushbu marosim Konibodom tumani o‘zbeklarida “besh morak” deb ataladi. Bunda bolani ilk marotaba cho‘miltirish uchun maxsus suv tayyorlangan, ya’ni uy issiqligida ilitigan suvni tuz, shaker, tanga, va eski paxsa devor tuprog‘i solingan”[5]. Bu suvga solingan ashyolarning har birida xosiyatli ma’no borligi namoyon bo‘ladi. Masalan, tuz – gigiena va to‘kin-sochinlik, rizq-nasiba ramzi, shakar – chaqaloq hayotining shirin o‘tishiga niyat, tanga – boylik, davlat ramzi, eski paxsa devor tuprog‘i chaqaloq tanasida turli o‘simta hamda tuklar chiqishining oldini olgan. Bu ko‘rinishdagi marosimlarni biz dunyodagi birorta xalqda uchratmaymiz. Bunga o‘xshash udumlar juda ko‘p va o‘zbek xalqining milliy madaniyati belgilari hisoblanadi.

O‘zbek xalqining milliy urf-odatlari yozuvchi Tog‘ay Murod asarlari, qissalarida yana ham o‘zining nasriy-badiiy ifodasini topgan. Tog‘ay Murod “Otamdan qolgan dalalar”, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanlari, “Yulduzlar mangu yonadi”, “Ot kishnagan oqshom”, “Oydinda yurgan odamlar” nomli qissalarida haqiqiy o‘zbek milliy madaniyatini, haqiqiy o‘zbek milliy lingvomadaniyatini “baxshiyona nasriy fasohat”[6] bilan “kuylay olgan” yozuvchidir. “Jumlalari qisqa, xalq tiliga yaqin, she’rdagi kabi tovush va so‘zlar takrori ko‘p. Baxshilarning sodda bayoniga o‘xshatsa bo‘ladi buni. Yana bir tomoni shundaki, milliy urf-odatlar, rasm-rusumlar, maqollar, so‘zlashish tarzi surxondaryocha yo‘sinda namoyon bo‘ladi. Butun tasvir o‘zbeklarning qaysidir hududi qavmiga tegishli mahalliy tasvirdek tuyuladi”[7]. Bu umuminsoniy qadriyatlarda o‘zbek milliy xalqimizning qadimiy urf-odatlari, an’ana va marosimlari, milliy madaniyati badiiy voqealar rivojida badiiy ifodasini topgan. “Ota-bobolarimiz farzadlarini umubashariy tuyg‘ular, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbyalashda an’anaviy xalq o‘yinlaridan samarali foydalanib kelishganlar”[8].

Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi”qissasida “*oq suyak*”, *yong‘oq, oshiq, shumshak, quloqcho‘zma, do‘l, g‘irboydi, chillik, zuvillatar, arqon tortish* o‘yinlari ifodasida Surxondaryo vohasi milliy a’anaviy o‘yinlari linvomadaniy tasviri berilgan. “*Suyak otgan* bolalar qatorlashib o‘tirdi. Raqiblarini qaradi. Bolalar suyaklarni izlab-izlab, oxiri topib keldi. Bordi-yu, topolmasa, suyak otgan bolalarning o‘zlari topib keladi. Tag‘in suyak otadi. Suyak ota berib-suyak ota berib, raqiblarini sarson qiladi. Endi suyak otish gali uni topib kelganlarda bo‘ldi. Bu, oqsuyak o‘yini bo‘ldi”[9]. “*Oq suyak*” o‘yini bolalar o‘yini bo‘lib, qorong‘u tunda o‘tkazilishi, qo‘rqmas, jasur, ziyrak, tez ilg‘ab olish va chaqqon bo‘lishga o‘rgatadigan qadimiy

[4]Аширов А. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари”. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Тошкент – 2007, 276 бет, 78-бет.

[5] Аширов А. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари”. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Тошкент – 2007, 276 бет, 82-бет.

[6] T.Shermurodov.”Baxshiyona nasriy fasohat”. Toshkent, 2000.

[7] T.Shermurodov.”Baxshiyona nasriy fasohat”. Toshkent, 2000.

[8]Турсунов С.Н, Пардаев Т. Сурхондарё этнографияси. Ўқув қўлланма, www.arxeologiya.uz, 117 бет, 96-бет.

[9] Тоғай Мурод.”Юлдузлар мангу ёнади” қисса, Танланган асарлар,“SHARQ” нашриёт-матбаа акционерлик компанияси бош таҳририяти, Тошкент – 2018, 702 бет, 338-бет.

o‘yinlardandir. “*Oq suyak*” o‘yini to‘g‘risida Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit- turk”, Alisher Navoiyning “Mahbubul-qulub” asarlarida ham ta’rif berib o‘tilgan. “Bolalar to‘da-to‘da bo‘lib, yong‘oq, oshiq, shumshak, quloqcho‘zma o‘ynadi. Do‘l, g‘irboydi, chillak, zuvillatar o‘ynadi…(Tog‘ay Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”). “An’anaviy o‘yinlar o‘zbek xalqining bir necha ming yillik ijodiy mahsuli bo‘lib, ular milliy madaniyatning ajralmas mahsuli bo‘lib, ular milliy madaniyatning ajralmas bir qismi sifatida ijtimoiy turmushda asosiy o‘rinlardan birini egallab kelmoqda”[10] .

Qadim-qadimdan o‘zbek xalqi hovlilarida o‘sma o‘stirish momolarimizdan, onalarimizdan qolgan udum, urf-odat sanaladi. “Qizlar saharda turnaqator dalalaydi. Qizlar bir xushro‘y bo‘ladi, bir xushro‘y bo‘ladi! Qizlar qoshida ko‘m-ko‘k *o‘sma* bo‘ladi”[11]. Qiz-juvonlar to‘planishib *o‘sma* qo‘yishi o‘zbek milliy madaniyatining, udumlarining namunasi sanaladi. O‘zbekona go‘zallik surtmasi sanalmish *o‘sma* qo‘yish odatida ham xalqimizning takrorlanmas madaniyati bor. Hovlilarda turli gullar, rayhonlar, *o‘smalar* o‘sib turishi saranjom-sarishtalik, madaniyatning, fayzu-barakaning belgisidir. Xalqimizda, ayniqsa, qaynona-kelin *o‘sma* qo‘ysa, bir-birlariga bo‘lgan hurmat-ehtirom tushuniladi.

To‘y o‘zbek xalqining ko‘p asrlik milliy qadriyatlaridan bo‘lib, odamlar o‘rtasida bir-biriga bo‘lgan mehr-oqibatni mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladigan udumlardan biridir. O‘zbek milliy madaniyatida to‘y faqat xursandchilik ulashadigan, qarindosh-urug‘larni bir joyga to‘plab, o‘zining orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan tadbir sanaladi. To‘yning ko‘rinishlari juda ko‘p. “Tug‘ilish to‘yi”, “beshik to‘yi”, “chilla to‘yi”, “sunnat to‘yi”, “muchal to‘yi”, “nikoh to‘yi”, “payg‘ambar to‘yi”, “oltmish, yetmish yosh to‘yi” va hokazo. “Nikoh to‘yi yuqorida nomlarini sanab o‘tganimiz to‘y turlari orasida alohida kasb etadigani hisoblanadi. Oila deb atalmish muqaddas qo‘rg‘onning ilk poydevori hisoblanmish nikoh to‘yi turli xalqlarning o‘ziga xos milliy madaniyati, dini, qadriyatlari va mentaliteti bilan bog‘liq rasm-rusumlar va urf-odatlar bilan nishonlanadi”[12]. Darhaqiat, nikoh to‘yi ikki yosh qalbning muhabbatga uyg‘unlashgan sevgisi, muhabbat tabiati talab qilgan xursandchilik va unutilmas kun. Nikoh to‘yi badiiy matnlarda ham o‘zbek milliy madaniyatining belgilarida ham lingvomadaniy ifodasini topgan. Sovchilarning oqshom payti kelishi, uy bekasining dasturxon yozishi, katta-katta to‘ylar bo‘lishini tilab duoga qo‘l ko‘tarilishi va nihoyat non sindirilishi, sovchilarning ohorli belqars o‘rab ketishi bo‘lajak to‘ydan darak belgisi sanaladi. Ayniqsa, nikoh to‘yida milliy madaniyatimiz bilan uyg‘unlashgan tadbirlarning o‘tkazilishi nikoh to‘yining mazmunini ifodalaydi. “Domla suvdan bir ho‘pladi. Kuyovda bir ho‘pladi. Nikoh suvidan kuyo jo‘ralar-da ho‘pladi. Nikoh o‘qilish mobaynida onasi kuyov yelkasiga beqasam chopon yopdi. Beqasam yelkasidan igna bilan ip o‘tkazib-ip o‘tkazib oldi. Bu kuyov-qayliq hamisha birikib yursin, ajralib ketmasin degani boldi”(Tog‘ay Murod. “Ot kishnagan oqshom”). Kiydirilgan choponning, do‘ppining va kuyovning beliga bog‘lanadigan belqarsning milliy-madaniy ma’nosi bor. Kiydirigan chopon ba do‘ppi nikoh to‘yida amal qilinadigan milliy urf-odatlarimizdan bo‘lib, chopon hamda do‘ppi kuyovga ko‘rsatilgan obro‘ va barkamollik ifodasi bo‘lsa, belqars bog‘lash kuyovga kuch-quvvat, sog‘lik tilagi ramzi sifatida qabul qilinadi. “Nikoh to‘yi marosimlariga doir leksik birliklarni tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilishi bugungi kun tilshunosligining bir qancha yangi sohalari, xususan, etnolingvistika, lingvokulturologiya, areal lingvistika kabi

[10] Турсунов С.Н, Пардаев Т. Сурхондарё этнографияси. Ўқув қўлланма, www.arxeologiya.uz, 117 бет, 100-бет.

[11] Тоғай Мурод.”Отамдан қолган далалар” роман, Танланган асарлар,“SHARQ” нашриёт-матбаа акционерлик компанияси бош таҳририяти, Тошкент – 2018, 702 бет, 58-бет.

[12] Қурбонназарова Н. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Фил.фан.бўйича фалсафа док.(PhD) дисс. – Термиз, 2021. 132 бет, 47-бет.

sohalarning rivoji uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi”[13]. Badiiy matnlarda qo‘llanilgan *sovchi* leksemasi O‘TILda quyidagicha izohlangan: *Sovchi* etn. Uylanuvchi yigit tomonidan biror xonadonning voyaga yetgan qizini ko‘rish va uni kelin qilib berishga qiz tomon roziligini so‘rash uchun vakil qilingan kishi(lar). Ahmad negadir parishonroq bo‘lib yurgan kunlarning birida katta qiziga sovchi keldi.(S.Nurov, Maysalarni ayoz urmaydi). “*Sovchilar* to‘g‘risidagi ilk ma’lumotlarni VII – VIII asrlarga oid O‘rxun-Enasoy bitiklarida uchratamiz. Buyuk davlat arbobi Tunyuquq “sov” – kalimasi, sab so‘z, “sabchi” – xabarchi, so‘z keltiruvchi ma’nosida qo‘llangan. O‘rta asrlar mashhur tilshunosi Mahmud Qoshg‘ariy bu xususda “sovchi – kelin va kuyov orasida bir-biriga xabar eltuvchi” deb izohlagan”[14]. Dasturxon so‘zi o‘zida o‘zbek xalqining boy madaniyati belisi bo‘lmish mehmondo‘stlikni ifodalaydi. Uyiga kim kelishidan qat’iy nazar dasturxon yozib, mehmon qilish, izzatini joyiga qo‘yish o‘zbek xalqining birinchi navbatdagi milliy urf-odatlari ko‘rinishi va belgisi hisoblanadi. “Sovchilar qadami qizlik uyga sharaf! Sovchilar oqshom payti keldi. Uy bekasi dasturxon yoydi. Xo‘jasi mezbonlik qildi” (Tog‘ay Murod, Oydinda yurgan odamlar). O‘zbek milliy madaniyatida o‘zbek mentalitetiga xos bo‘lgan ajoyib jihatlardan keng uyli, ko‘p farzandli bo‘lish, to‘y-tomosha qilish milliylikning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Aksincha, o‘zbek milliyligimizda mehmonni yaxshi kutib olmaslik, hurmatini joyiga qo‘ymaslik, yaxshi qarshilamaslik milliy an’analarimizga rioya qilmaslik hisoblanib, bunga o‘xshash holatlarda o‘z oilasini, qishlog‘ini va nasl-nasabini isnodga qo‘yish hisoblangan. An’analarimiz hatto dushmanini ham mehmondo‘stlik bilan kutib olishga chaqirgan. Bu kabi hodisalar mehmondo‘st, bag‘rikeng, sodda, ishonuvchan va boshqa millat vakillarining nazarida hayratlanarli, g‘alati, tushunarsiz stereotiplar deb qaralib kelingan.

“Non” leksemasining mazmunida o‘zbek xalqining milliy taomlaridan biri ekanligi, qadimdan nonga katta hurmatda bo‘lib kelinganligi, non tirikchilik manbai ekanligi to‘g‘risida juda ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida ham non to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Masalan, bushkal[15]- lochira non. Isbiri - issiq kulda pishirilib, yoqqa tug‘rab yeyiladigan non. Komuch[16]- ko‘moch. O‘choqda cho‘qqa ko‘mib pishiriladigan non. Sincho[17]- lochiradek juda yupqa ham, qalin ham bo‘lmagan non turi. Boskach[18]- yuqa non. Luga[19]- qat-qat non.

Zamonaviy tilshunoslikda “non” leksemasi o‘zida bir necha leksik-semantik ma’nolarni ifodalaydi. Non 1 – undan pishiriladigan oziq-ovqat mahsuloti. Nonning ushog‘i ham non. Maqol. Non 2 – bunday mahsulot uchun g‘alla, donning zarurligi. Non 3 – insonning yashashi, mavjudligi uchun zarur vosita, eng muhim hayotiy ozuqa. “Non qadrini och bilar, kiyim qadrini – yalang‘och” Maqol. “Non yemoq” o‘zbek frazeologizmi biron narsadan foydalanib, tirikchilik o‘tkzmoq, kun kechirmoq ma’nosida, “Non gadoyi” frazeologizmi esa nonga zor, kambag‘al-qashshoq ma’nosida ishlatiladi. “Нон asli don” frazeologizmi elimizning azaliy qadriyatlariga bog‘liq. Xalqimiz nonni azaldan hurmat qiladi, hamma narsadan afzal, aziz, muqaddas deb biladi. Ota-bobolardan qolib kelayotgan udum, an’anaga binoan, hatto nonni teskari tishlamaydilar, nonning ustiga boshqa narsa qo‘ymaydilar, nonning ustidan hatlab otmaydilar, agar non qo‘ldan

[13] Қурбонназарова Н. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Фил.фан.бўйича фалсафа док.(PhD) дисс. – Термиз, 2021. 132 бет, 48-бет.
[14] Аширов А. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари”. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Тошкент – 2007, 276 бет, 89-бет.

[15] Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. I том... 126,159,444,445-бетлар.
[16] Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. I том...341-бет.
[17] Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. I том...394-бет.
[18] Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. I том...423-бет.
[19] Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. III том...34-бет.

tushib ketsa, darhol uni olib, uch marta o‘pib, peshonalariga suradilar”[20]. Yoki, sunnat to‘yi bilan bog‘liq milliy an’analarda o‘g‘il bolaning qo‘lini halollatish an’anasida ham non tishlatish odat bo‘lgan. “O‘g‘il og‘ziga non tutdilar. – Tishla, tishla! – dedilar. O‘g‘il non tishladi”(Tog‘ay Murod, “Oydinda yurgan odamlar”). O‘zbek milliy urf-odatlarining ichida farzandni beshikka solish, o‘g‘il bolalarning qo‘lini halollatish, safarga jo‘natish marosimlarida ham non tishlatib qolish urfga aylangan. Chunki bu urfda juda katta ramziy ma’no bor. Non tishlatish milliy ramziy ma’noga ega bo‘lib, azaldan ajdodlarimiz nonni muqaddas deb bilganliklari, uning rizq-ro‘z, nasiba ramzi ekanligidan dalolat. Beshikdagi chaqaloqqa non tishlatish, o‘g‘il bolalarning qo‘lini halollatish va safarga jo‘natish marosimlarining mazmun-mohiyatida bolaning doimiy sog‘ bo‘lishi, safarga ketganda eson-omon qaytib kelishi uchun bildirilgan niyatlarning ifodasi bor. “Shuni ham aytish kerakki, taomlar nafaqat birgalikda tanovul qilinganda, balki bir-birlariga tortiq qilinganda ham o‘rtadagi munosabatlarni iliqlashtiradigan muhim vazifani o‘tagan. Masalan, Surxon vohasining nikoh to‘ylari bilan bog‘liq ”ilik taboq” marosimi Oltinsoy tumanining Vaxshivor, Xo‘jasoat, Hayrondara, Lo‘kka qishloqlarida o‘tkazilgan. Kelinnikiga fotiha to‘y yuboriladigan kun bir qo‘y so‘yilib, qozonga solib qaynatilgan va kelinnikiga bir tovoq qilib jo‘natilgan. Kelin tomon kuyovga atab, katta bir ilikli go‘shtni tovg‘i bilan qo‘shib qaytarib yuborgan. Bu kuyovning luqmasi hisblanganligi uchun bu taom *luqma* deb ham atalgan”[21]. Nikoh to‘yi bilan bog‘liq marosimlarimizning milliy mazmunini yanada ravshanroq va mazmunli lingvomadaniy ifodalashda badiiy matnlarning ahamiyati kattadir. Badiiy matnlarda lingvomadaniy sanalgan juda ko‘plab so‘z va ifodalar qo‘llaniladiki, bu so‘zlar orqali o‘zbek milliy urf-odatlari va qadriyatlari o‘zining badiiy tasvirini topgan bo‘ladi. Ayniqsa, Tog‘ay Murodning asarlarida kuyov-kuyovto‘ra, kuyovjo‘ralar, qayliqlab, nikoh suvi, chimildiq, kampiro‘ldi, soch siypatar, qo‘l ushlatar, oyna ko‘rsatar, kayvoni ayol, ko‘rpa soldi, yuz ochar kabi lingvomadaniy leksemalarning o‘rinli va unumli qo‘llanganligining guvohi bo‘lamiz. Masalan, “Kuyov jo‘ralar kelinnikiga yo‘l oldi”, “Chimildiqli uy to‘la ayol bo‘ldi”, “Kuyov chaqqonlik qilib kelin oyog‘ini bosdi”, “Boshlarda ottuyoq ro‘mol, sholro‘mol, balxiro‘mol, simro‘mol, harir ro‘mollar havolandi”, “Elimiz kamalakni matoga ko‘chirdi. Oti atlas bo‘ldi”, “Bir yil to‘rt fasl bo‘ldi. Fasllar ranglarga mo‘l bo‘ldi: bahor-gulzor, yoz-oftob, kuz-munis, qish-marmar…”, “It g‘irillatar, kampir o‘ldi, Soch siypatar, Qo‘l ushlatar bo‘ldi”, “Oyna ko‘rsatar baridan-da zavqli bo‘ldi, baridan-da gashtli bo‘ldi!”, “Kuyov-qayliq chimildiq ichida qoldi” (Tog‘ay Murod, “Oydinda yurgan odamlar”) kabi nikoh to‘yi tasvirlarida o‘zbek milliy lingvomadaniyatining yorqin ifodasi aks etgan. *Chimildiq* kelinni yovuz kuchlar va yomon ko‘zlardan asrovchi o‘ziga xos milliy himoya vositasi funksiyasini bajargan.

Badiiy matnlarda o‘zbek milliy madaniyatinig lingvomadaniy ifodasi, milliy urf-odatlar – milliy lingvomadaniy birlik sifatida xulosa qilish mumkinki, milliy urf-odatlar, qadriyatlar va milliy marosimlarga xos so‘zlar, leksemalarni tilshunoslik qonuniyatlari asosida tahlil qilish ushbu fanning rivoji uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi va ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қурбонназарова Н. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Фил.фан.бўйича фалсафа док.(PhD) дисс. – Термиз, 2021.

[20] Жумаева З.Ш. “Нон” рамзий компонентининг лингвокультурологик тадқиқи. Илмий-амалий конференция материаллари, (2-китоб, 2-5 шуъбалар) Тошкент – 2020, 549-бет.

[21] Файзуллаева М. Ўзбек маросимий циклидаги таомлар ва тановул (Сурхон воҳаси никоҳ маросимлари мисолида). “Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари” Республика XII илмий-амалий конференция материаллари, 2-қисм, Тошкент – 2020.

2. Мирзаев Н. Ўзбек тилининг этнографик лексикаси. Филол.фан.номзоди дисс. – Тошкент, 1971.; Жўрабоев А. Ўзбек тилида тўй маросим номлари. Филол.фан.номзоди дисс. – Тошкент, 1971.; Ҳусаинова З. Тўй маросимлари номларининг ономосиологик тадқиқи (Бухоро гуруҳ шевалариасосида) Филол.фан.ном. дисс. – Тошкент, 1984.; Давлатов С. Қашқадарё воҳаси ўзбек тўй маросимлари фольклори. Филол.фан.номзоди дисс. – Тошкент, 1996.; Қурбонбоева Н. Хоразм тўй қўшиқлари.Филол.фан.номзоди дисс. – Тошкент, 1998. ; Худойқулова Л. Сурхондарё тўй-маросим қўшиқлари. Филол.фан.номзоди дисс. – Тошкент, 2011.; Бобожонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси. Филол.фан.номзоди дисс. – Тошкент, 1997. ; Ҳайитова Ф. Никоҳ тўйи қўшиқларининг лиргвистик талқини. Филол.фан.номзоди дисс. – Тошкент, 1998.; Нуриллаева Ш.М. Туркистон қарлуқ тил шеваларида тўй маросими номлари. Филол.фан.номзоди дисс. – Тошкент, 2001.; Амонтурдиев Н. Сурхондарё этногафизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил.фан.бўйича фалсафа док.(PhD) дисс. – Термиз, 2021.; Файзуллаева М. Ўзбек маросимий циклидаги таомлар ва тановвул (Сурхон воҳаси никоҳ маросимлари мисолида)

3. Аширов А. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари”. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Тошкент – 2007, 276 бет, 78-бет.

4. T.Shermurodov.”Baxshiyona nasriy fasohat”. Toshkent, 2000. https://adabiyot.islamonline.uz/adabiyotshunoslik/551-maqola.pdf 25 bet.

5. Турсунов С.Н, Пардаев Т. Сурхондарё этнографияси. Ўқув қўлланма, www.arxeologiya.uz, 117 бет, 96-бет.

6. Тоғай Мурод.”Юлдузлар мангу ёнади” қисса, Танланган асарлар,“SHARQ” нашриёт-матбаа акционерлик компанияси бош таҳририяти, Тошкент – 2018, 702 бет, 338-бет.

7. Турсунов С.Н, Пардаев Т. Сурхондарё этнографияси. Ўқув қўлланма, www.arxeologiya.uz, 117 бет, 100-бет

8. Тоғай Мурод.”Отамдан қолган далалар” роман, Танланган асарлар,“SHARQ” нашриёт-матбаа акционерлик компанияси бош таҳририяти, Тошкент – 2018, 702 бет, 58-бет.

9. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. I том... 126,159,444,445-бетлар.

10. Жумаева З.Ш. “Нон” рамзий компонентининг лингвокультурологик тадқиқи. Илмий-амалий конференция материаллари, (2-китоб, 2-5 шуъбалар) Тошкент – 2020, 549-бет.

11. Файзуллаева М. Ўзбек маросимий циклидаги таомлар ва тановул (Сурхон воҳаси никоҳ маросимлари мисолида). “Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари” Республика XII илмий-амалий конференция материаллари, 2-қисм, Тошкент – 2020.